

*“Biz dunyo go`zalligini, hayot falsafasini va ma`no-
mazmunini avvalombor ayol siymosida, uning fidoyi
qalb, vafo va sadoqatida ko`ramiz, his etamiz”*

I.A. Karimov

*Ayolga yolbor,
Ming bir kecha ertaklaring ayt,
Alpomishlar tug`ib beradi.*

*Ayolni sev,
Ostonasin o`p,
Qasr qurma, ko`nglini so`ra.
Balo kelsa, turib beradi.*

*Ayolni sev,
O`laman degil,
Ishq yaratgan parvardigordan,
Senga umr so`rab beradi.*


Farida Afro`z

Otasi-Qo`ziboy Bo`taboy o`g`li; onasi-Tojiniso Boymirza qizi. 1955 yil 10 avgust juma tongida Farg`ona vodiysining Uchko`prik tumanidagi Xonxo`ja qishlog`ida dunyoga kelgan. Qo`qondagi 10-o`rta maktabda ta`lim olgan. Beshinchi sinfda o`qib yurgan kezlari, o`n bir yoshidan boshlab she`rlar yoza boshladi. “Qirq kokilligim”, “Lztirob ko`ylagi”, “Tunlar isyoni”, “Ko`zim manim”, “O`zimdan o`zimgacha”, “Ushshoq”, “Gun aydin” (Istambul), “Tasbeh” she`riy majmualar muallifi.


“She’riyatga chaqmoqdek chaqnab emas, balki kelinchakdek iymanibgina kirib kelgan Farida Afro`z barcha esli kelinlar kabi kelgan uyiga tup qo`yib, palak yozdi. Qator-qatorshe’riy farzandlarni dunyoga keltirib, sezdirmayginabu uyni o`ziniki qilib oldi. Bir paytlar chaqnagan adabiy chaqmoqlarning qanchasi so`nib ketdi. Farida esa bugungi kunda ulkan she’riy o`tboshimizga fayz beradigan bekalardan biriga aylandi. Farida Afro`z ijodda nafaqat birovni, hatto, o`zini ham takrorlamaslikka urinadi. Shuning uchun ham uning har bir navbatdagi kitobidan o`quvchilar qandaydir bir yangilik kutishga o`rganib qolishgan. Shakliy, mundarijaviyizlanishlar shoira she’riyatiga xos doimiy xususiyat bo`lgani uchun ham uning ijodiy parvozi tinimsiz yuksalib borayotir”.

Qozoqboy Yo`ldoshov


Farida Afro`z tasbehlaridan namunalar:




*Igna bilan quduq qazidim...
Hanuzgacha yamab bo`lardim
Dunyo degan juldur choponni.*



*Tulki-ku tumshug`idan ilinar, shaksiz,
Bo`rining og`zi qon, esa-emasa,
Tegirmondan butun chiqar bu Odam.*



*Sabr tagi-oltin edi, voh,
Oltin bugun zo`rniki bo`ldi,
Tomoshachi, bo`ldi ko`rniki.*



*Itning vafo qilganin ko`rdim,
Xotinning ham jafosin, ammo,
Erman degan erkak qolmadi.*



XULOSA

Farida Afro`z she`rlarida kechinmalar hayrat, tajjub, nafrat, ehtiros, sevinch, surur, qayg`u-o`kinch, yig`i, afsus-nadomat, sabr, alam, armon, qanoat, g`urur va h.k. turfahis-tuyg`ular silsilasi bilan yashaydi. Odam borki, ma`naviy-intelektual yoki Ijtimoiy-siyosiyimi, qaysi shakldagi faoliyatida bo`lmasin, o`zini hayajonga solgan fikr-o`ylari va tuyg`ularini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1.Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillika erishish ostonasida. –T.: O`zbekiston, 2011 yil.
- 2.Karimov I.A.Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2010 yil.
- 3.Begmatov E. Hozirgi o`zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985 yil.
- 4.Karimova M. Ayol yaratgan dunyo. –T.: Sharq, 2005 yil.
- 5.Nurmonov A va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002 yil.
- 6.Nurmonov A. Tanlangan asarlar. II jild. –T.: Akademnashr, 2012 yil.
- 7Rahimjonov N. Mustaqillik davri o`zbek she`riyati. –T.: Fan, 2007 yil.
- 8.Farida Afro`z. Tasbeh. –T.: Sharq, 2007 yil.
- 9.Xayrullayev M. Ma`naviyat yulduzlari. –T., 2001yil.
- 10.XX asr o`zbek she`riyati antologiyasi. –T.: O`zbekiston, 2007yil.
11. XX asr o`zbek adabiyoti manzaralari. T.: O`zbekiston, 2008 yil.
- 12.Yusuf B. Mumtoz adabiy asarlar lug`ati. –T.: Sharq, 2010 yil.
- 13.Shoabdurahmonov va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili, I qism. –T., 1980 yil.
- 14.O`zbek tilining izohli lug`ati, 5 jildlik. –T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2007 yil.
15. Qilichev E. O`zbek tilining amaliy sintaksisi. -T., 1992 yil.
- 16.Hojiyev A. O`zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so`z yasalishining nazariy masalari. –T.: Fan, 2010 yil.